

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANTIRISHNING INNIVATSION METODIKALARI

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar

6-DMTT

Kichik guruh tarbiyachisi

Mamadaliyeva Nurxon

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida kreativ fikrlashga o'rgatishga doir zaruriy ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek maqolada kreativlik, innovatsion texnologiya, maktabgacha ta'lim, maktab Yoshi kabi tushunchalar mazmuni ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, kreativlik, qobiliyat, pedagogik texnologiya, innovatsiya, ta'lim, tarbiya, interfaol metod.

Аннотация. В данной статье содержится необходимая информация по обучению дошкольников творческому мышлению с использованием инновационных педагогических технологий. Также в статье рассматриваются такие понятия, как творчество, инновационные технологии, дошкольное образование и школьный возраст.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитатель, креативность, способности, педагогическая технология, инновация, образование, обучение, интерактивный метод.

Bugungi kunda Respublikamizning barcha sohalari kabi maktabgacha ta'lim sohasi ham chuqur islohotlarni boshidan kechirmoqda. Bunda asosiy maqsad – maktabgacha ta'lim faoliyatini demokratlashtirish, uning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, o'quv-tarbiya ishlari jarayonining mazmunini, hamda shaklini yangilash evaziga sifat samaradorligini oshirishga erishishdan iborat. Pedagogik innovatsion

texnologiya - bu tarbiyachi tomonidan tarbiyalash vositalari yordamida tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatish hamda bu faoliyat mahsuli sifatida ularda muayyan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir. Bu vazifani bajarish uchun hozirgi zamon maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tarbiyachi va pedagoglardan o'z kasbiy mahoratlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, innovatsion pedagogik metodlarning mazmun-mohiyatini to'liq anglashlari va ulardan o'z faoliyatlarida mohirona foydalanadigan bo'lishlarini taqazo etadi. Ta'lim muassasasida innovatsion faoliyatning samarali yo'lga qo'yilganligi innovatsion jarayon sub'ekti va innovatsion jarayonning faoliyatli tuzilishi bilan bevosita bog'liqdir. Innovatsion jarayon sub'ekti deganda, ta'lim muassasalariga yangiliklar kiritish jarayoniga ishtirok etuvchi shaxslar (direktor, metodistlar, tarbiyachilar, ota-onalar, homiylar) va ta'limni boshqarish organlari tushuniladi. Ular harakatining birligi ma'lum bir natijalarga erishishga olib keladi. Ta'lim muassasasidagi innovatsion faoliyatning maqsadga yo'naltirilganligi va tashkil etilganligi innovatsion jarayonning faoliyatli tuzilishini oqilona tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Mazkur holat har bir alohida harakat tuzulishini inobatga olishni taqozo etadi. Innovatsion jarayonning faoliyatli tuzilishi motiv–maqsad–vazifa–shakl–metod–natija kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga qamrab oladi. “Innovatsion faoliyat – tarbiyachining o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi. U tarbiyachi tomonidan u yoki bu pedagogik vazifani hal qilishda qandaydir to'siqqa duch kelinib, uni muvaffaqiyatli hal etishga intilish asosida yuzaga keladi. Innovatsion faoliyat yangi g'oyani izlashdan boshlanadi. Pedagogik innovatsiya ta'lim-tarbiya jarayonidagi muhim va murakkab masala yechimiga yo'naltirilganligi sababli tarbiyachidan yangicha yondashuvni talab qiladi.

Innovatsion - bu yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni anglatadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda pedagog faoliyatiga yangilik bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkiloti

mashg'ulotlarida ta'lim-tarbiya berishda interfaol usullardan foydalanishdan maqsad shundaki, bolalarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, muammoli vaziyat-larni yecha olish ko'nikmasini rivojlantirish, bolalarni faollashtirish va ularda do'stona munosabatlarni shakllantirish. Xususan, yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev maktabgacha ta'lim tizimi haqida quyidagi fikrlarni bejizga bildirmagan edilar: "Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Aynan maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi".

Kreativlik (lot ing. "sreate"—yaratish, "sreative" yaratuvchi ijodkor)—individdning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi SHaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. SHuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Innovatsion texnologiya - bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda bolalarga yangi bilim berishdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni tashkil etishda interfaol metodlardan samarali foydalanish bu pedagogning kreativligiga bog'liq. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishda rasm chizish, loyihalash, modellashtirish, shuningdek, bolalar faoliyatining o'yin, dramatizatsiya kabi turlaridan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Kreativlik (lot ing. "sreate"—yaratish, "sreative" yaratuvchi ijodkor)—individdning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi SHaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. SHuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Innovatsion texnologiya - bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda bolalarga yangi bilim berishdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni tashkil etishda interfaol metodlardan samarali foydalanish bu pedagogning kreativligiga bog'liq. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishda rasm chizish, loyihalash, modellashtirish, shuningdek, bolalar faoliyatining o'yin, dramatizatsiya kabi turlaridan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

Xulosa shuki, har qanday innovatsion yangilik zaminida biron – bir g'oya yotadi. Pedagogik texnologiya tarbiyalanuvchilarning mashg'ulot jarayoniga faol qatnashishi va mashg'ulotga qiziqishini orttiradi. mashg'ulotlarning qanchalik samaradorli bo'lishi albatta birinchi galda biz – bo'lg'usi pedagoglarga - qanday pedagogik texnologiyalardan foydalanishimizga bog'liqdir. Demak, biz o'z faoliyatimizda bir xil yoki bir-biriga o'xshash usullar bilan chegaralanib qolmay, mashg'ulotlarni ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etishimiz bugunning dolzarb talabidir. Xulosa shuki, har qanday innovatsion yangilik zaminida biron – bir g'oya yotadi. Pedagogik texnologiya tarbiyalanuvchilarning mashg'ulot jarayoniga faol qatnashishi va mashg'ulotga qiziqishini orttiradi. mashg'ulotlarning qanchalik samaradorli bo'lishi albatta birinchi galda biz – bo'lg'usi pedagoglarga - qanday pedagogik texnologiyalardan foydalanishimizga bog'liqdir. Demak, biz o'z faoliyatimizda bir xil yoki bir-biriga o'xshash usullar bilan chegaralanib qolmay, mashg'ulotlarni ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etishimiz bugunning dolzarb talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Imametdinova R.Ya. “Bolalarning ijodiy qobiliyatlari” (2006) 10. Qodirova “Maktabgacha pedagogika”
- 2.Abuqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubi (o'quv-uslubiy qo'llanma). - Qarshi : Nasaf,

2011. Ziyamuhammedov, Bo'ri, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya-zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.y

3.Qishtimova I.M. “Ijodkorlikning Psixosemiotikasi” (2008)

4.Imametdinova R.Ya. “Bolalarning ijodiy qobiliyatlari” (2006) 10. Qodirova “Maktabgacha pedagogika”

5.Xalimjanovna, A. M. (2022). EDUCATION OF CHILDREN IN THE WORKS OF OUR GREAT SCIENTISTS. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 4, 45-49.